

**SAID AHMADNING O‘ZBEK HIKOYACHILIGI
TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI****Imomqulova Gulchehra Norboboyevna***O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti o‘qituvchisi*

XX asrning boshlarida shakllangan hikoya janri bir asrdan ortiqroq vaqt davomida shakllanib, taraqqiyiy etish, badiiyat mezonlarining turli xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirib keldi va kelmoqda. Hikoya janrining ilk kurtaklari xalq og‘zaki, keyinchalik yozma mumtoz adabiyotda shakllangan bo‘lsa-da, uning janr sigatidagi taraqqiyoti o‘tgan asrning boshlaridagi davr adabiyoti bilan uzviy bog‘liqdir. Adibning ilk hikoyalari o‘tgan asrning qirqinchi yillarida yaratilgan bo‘lsa ham, unda davr va muhit, sotsial jamiyatning ba‘zi xususiyatlari mavjudligini inkor qilmagan holda, badiiy xarakter va konflikt yaratish jarayonida o‘ziga xos badiiy mahoratini namoyon qilgan.

Adabiyotshunos U.To‘ychiyev qayd qilib o‘tganidek: “Milliy o‘ziga xoslik mavzusi va uni badiiy tadqiq qilish, qahramon xarakteri va uni shakllantirish vositalarini yuzaga chiqardi. Said Ahmadning “Mastonbibi” hikoyasi 1943-yili jahon urushi davrida yozildi, mavzu front orqasidagi qishloq hayoti, paxtachilik va bu sohadagi qiyinchiliklar tasviridir” [1,465-bet]. Biz bu o‘rinda, adib hikoyasining g‘oyaviy xususiyati haqida emas, milliy xarakter yaratish an‘anasining poetik talqinini nazarda tutmoqdamiz, chunki jida ko‘plab asarlarda sotsial jamiyatning mafkurasi sezilib turadi, ammo ijodkorning hayotni, voqelikni, inson qismatining murakkab qirralarini talqin etishdagi mahoratini unitmaslik kerak [2, 92-bet].

O‘zbekiston xalq yozuvchisi, O‘zbekiston qahramoni Said Ahmad o‘zining rang-barang hikoyalari, publitsistik maqolalari, qissa-yu romanlari, xushchaqchaq komediyalari bilan hozirgi o‘zbek adabiyotida munosib o‘rin egallaydi. U-ayniqsa, hajv ustasi sifatida e‘tirof etildi. Mavzu jihatdan rang-barang hikoyalar yaratdi.

O‘zbekiston qahramoni Ozod Sharafiddinov qayd etganidek: “Said Ahmad asarlari g‘oyat boy koloritga ega. U O‘zbekiston manzaralarini ham, o‘zbek milliy xarakterini ham shunchaki adib ko‘zi bilan emas, zehni o‘tkir rassom ko‘zi bilan ko‘radi. Buning oqibatida hamma milliy ranglar jamiki jilosini saqlagan holda ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi va bizni oshufta etadi, ko‘nglimizda g‘urur uyg‘otadi. Said Ahmad asarlarida yumor bilan lirikaning chatishib ketganidir” [3, 354-355-betlar].

Darhaqiqat, qayd qilinganidek, hayot voqeligini talqin etish, milliy xarakterlar yaratish, uning zamiridagi achchiq hayot haqiqati, komik-satirik ifoda shakllarining barchasi Said Ahmad asarlariga xos ifoda shakllaridir. Adibning dilbar hikoyalari, ichak uzdi hajviyalari, nurbaxsh komediyalari, hayotiy romanlari bilan XX asr ikkinchi yarmidagi o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutdi.

Adib hikoyanavis sifatida tanildi, bu janrda barakali ijod qildi. Uning “Onajonlar”, “Turnalar”, “Cho‘l burguti”, “Muhabbatning tug‘ilishi”, “Hayqiriq”, “To‘y kechasida” singari o‘nlab hikoyalari o‘zbek lirik hikoyachiligi yo‘nalishini belgilaydi, deyish mumkin. Uning

birinchi hikoyalar to‘plami “Tortiq” 1940-yilda maydonga chiqdi. Yillar davomidagi izlanishlari, uning badiiy asar yaratish sirlarini egallashiga zamin bo‘ldi. Adibning iste‘dodli yozuvchi sifatida shakllanishida, ayniqsa, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Oybeklarning xizmatlarini ham alohida qayd etish lozim. Ustoz adiblar ijodiga, katta mehr bilan qaradi, ularning voqelikni ifodalashagi badiiy mahoratiga ham nazar tashladi, izlandi, o‘rgandi, yaratdi.

Said Ahmadning o‘zi bu haqda: “Aslida meni hajv yo‘liga G‘afur G‘ulom boshlab kirgan. Ma‘lumki, G‘afur aka o‘ttizinchi yillarda hajv janrida barakali ijod qildi. Ixcham, kulgili hikoyalarning juda yaxshi namunalarini yaratdi. Men shu hikoyalar ta‘sirida adabiyotga kirganman. Keyinchalik bu buyuk yozuvchi bilan yaqindan tanishganim, undan rosmana ijodiy ta‘lim olishim hajvga bo‘lgan intilishimda juda katta yordam berdi. Undan keyin Abdulla Qahhor hikoyalaridagi siqqlik, so‘zni isrof qilmaslik, tagdor gap aytish san‘ati men uchun bir darslik xizmatini o‘tadi!” - deb yozgan edi.

Said Ahmad ijodi urushdan so‘ng, xususan, o‘tgan oltmishinchi yillarga kelib yuksala boshladi. Bu davrning mahsuli bo‘lgan “Turnalar”, “Onajonlar”, “Ko‘klam taronalari”, “Xazina”, “To‘lqinlar”, “Hayqiriq”, “Cho‘l burguti”, “O‘rik domla”, “Lochin”, “Odam va bo‘ron”, “Bo‘ston”, “To‘yboshi” kabi hikoyalar Said Ahmadning so‘zga xasis, fikrga saxiy, yumorga boy yozuvchi bo‘lib yetishganligidan, buyuk iste‘dod sohiblari A.Qodiriy, G‘.G‘ulom, Oybek, A.Qahhor an‘analarini muvaffaqiyat bilan davom ettirayotganligidan dalolat berdi.

Said Ahmadning ko‘p hikoyalarida, xususan, “Cho‘l shamollari”, “Cho‘l oqshomlari” turkumlariga kirgan hikoyalarini shu janrning yetuk namunalari deyish mumkin. Adib bu hikoyalarida jonli, tiniq obrazlar yaratib, voqelikdagi yangiliklarni, oddiy kishilar hayotidagi murakkab ziddiyatlarni, ular ong tushunchasidagi ibratli jihatlarni umumlashtirib, qalb kechinmalarini ustalik bilan tasvirlaganligi adabiyotshunosligimizda alohida qayd etilgan. Bu tushunchalarni U.Normatov, X.Doniyorov, S.Mirzayev, B.Yo‘ldoshev, N.Rahimjonov, A.Mamatov, Sh.Ahmedova, A.Nasirov, Muhammad ash-Shantiy kabi olimlarning tadqiqotlarida kuzatish mumkin [4].

Said Ahmad o‘zining “Cho‘l hikoyalari”ni “cho‘llarda boshlangan yangi hayot va yangi odamlar qissasi” deb atashi ham bejiz emas, to‘g‘ri, qaysidir ma‘noda g‘oyaviy jihatdan davr mafkurasiga hamohanglik mavjuddir, ammo ijodkor poetik mahoratini, tasvirdagi qabaraiqlikni, inson tuyg‘ularidagi ziddiyatlarni mahorat bilan talqin etilganligini also unitib bo‘lmaydi [5, 80-bet].

“Cho‘l hikoyalari” turkumi bir-birini mantiqan to‘ldiruvchi va davom ettiruvchi yigirmadan ziyod hikoyadan tashkil topgan bo‘lib, ularda cho‘l va cho‘lquvarlar hayotidan tipik lavhalar chizilgan. Cho‘llarni o‘zlashtirayotgan oddiy odamlarning ajoyib fazilatlarini ochib berilgan. Bu odamlarning bir-biriga aslo o‘xshamaydigan xarakterlari, o‘ziga xos jonli obrazlari yaratilgan. Yozyovonlik cho‘l burguti Rahimjon (“Cho‘l burguti”), cho‘lni bog‘-u roqqa aylantirib, o‘lkamizni shirin-shakar mevalarga yanada serob qilishni hayotining maqsadi deb bilgan. O‘rik domla (shu nomli hikoyada), o‘zining aql-u farosati va mehnati bilan cho‘lquvarlarni qoyil qoldirgan traktorchi qiz Oysha (“Lochin”) kabi obrazlar shular

jumlasidandir. Yozuvchi qahramonlar haqida mehr bilan ularga maftun bo‘lib qalam tebratgan. Bunda xushchaqchaq yumor bilan hayotbash lirika aralashib ketganday bo‘ladi.

Yozuvchining ayrim hajviyalari asosini oddiy insoniy munosabatlardan kelib chiquvchi norasolik, noshudlik tashkil etadi [6,40-bet]. Uning “Muzei” hikoyasidagi sodir bo‘layotgan voqealar ham bir jihatdan nihoyatda oddiy. Biroq, ular mohiyatida inson ko‘ngli bor. “Mening do‘stim Babbayev” hajviyasi ana shunday asarlardan. Dilkash va odamoxun Ne‘mat zavod direktori bo‘ldi-yu, o‘zgaradi-qoladi. Ne‘mat yaqin do‘stiga shu qadar rasmiy, sovuq munosabatda bo‘ladi-ki, mazmunan deyarli achinarli, ma‘nan salkam fojey bu holat yozuvchining usta qalami ostida mohiyat jihatidan o‘tkir kulgili manzaraga aylanadi. Ehtimol, bu holat, bu hodisa kulishdan ham ko‘proq achinishga munosibdir? Yo, Said Ahmad o‘z qahramonini fe‘l-atvorini shunday chizadiki, unga bizni achintirmaydi, balki, uning ustidan kuldiradi. O‘quvchisini bunday shaxslar ustida kulib g‘olib kelishga, ularni fosh etishga o‘rgatadi.

Said Ahmad mohir hikoyanavis sifatida 50-yillarning o‘rtalarida tanildi. Said Ahmadning aksar hikoyalarini lirik, ba‘zi hikoyalari lirik-publitsistik xususiyatga egadir. Ularda yozuvchi xalqimizning qanoat va matonatini, og‘ir va murakkab sharoitlardagi bardoshini, olijanob tuyg‘ularini ulug‘ladi. Muhabbat, mehnat shijoati, urush asoratlaridan yorug‘ yuz bilan chiqqan iroda, qismat va shukronalik tuyg‘ulari, qalb go‘zalligi- mana, hikoyanavis Said Ahmad e‘tiborini tortgan mavzular, muammolar, - deb qarash mumkin.

Adib hikoyalarining mazmuni, qahramonlari, tasvir usullari rang-barang. Adib qahramonlari ichida otash qalbli cho‘l burgutlari-yu, mirishkor bog‘bonlarni, talaba-yu muhandislarni, muhabbat olovlarida toblangan, uning sirli sinovlaridan o‘ta olgan-u o‘ta olmay armonda qolgan yoshlarni, zamon talotumlarida o‘zligini izlagan, topgan va topolmagan zamondoshlar obrazlarini uchratamiz.

“Jimjitlik” hikoyasining qahramoni Tolibjon ham ana shunday o‘zligini izlagan yigitlardan. Inson o‘zligini o‘zidan izlashi mumkin. Tolibjonda ham bu masala o‘ziga xos kechadi. Bu masala unda milliy qadriyatlarni idrok etish, tarixga vorislik bilan bugunning robitalarini bog‘lash, hayotda o‘z o‘rnini topish asnosida emas, serg‘alva XX asrning qononiyatlari buzulib, uning bokira vujudini zo‘rma-zo‘rakilik bilan, hatto, payhon qilib egallash avj olayotgan sharoitlarda bir oddiy insoniy sokinlikni qo‘msash jarayonida ro‘y beradi. Muallif hikoyaga yakun yasamaydi, balki xulosa chiqarishni, qahramon haqida mulohaza yuritishni o‘quvchining o‘ziga qo‘yadi.

Xullas, iste‘dodli adib, Said Ahmad ijodidan o‘rin olgan hikoyalarning poetik xususiyatlari, ularning qaysi davr va muhitda yaratishidan qat‘iy nazar, mukammal asarlar ekanligidan dalolat beradi. Ba‘zi hikoyalarda sobiq sho‘rolar davrining murakkab xususiyatlari, inson xarakteri va ruhiyatiga singdirilgan bo‘lsa, mustaqillik yillarida yaratilgan hikoyalarda adibning o‘ining murakkab hayoti, adolat va adolatsizliklar, jamiyatdagi haq va haqsizliklar, erk va erksizlar juda mahorat bilan talqin etilganligini kuzatish mumkin. Bu tushunchalarning barchasi, iste‘dodli adib Said Ahmadning o‘zbek hikoyachiligining taraqqiyotida o‘ziga xos o‘rni, va ijodining muhimligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. Ўқув қўлланма. – ошкент, 2011. – 508 бет.

2. Normamatovich, N. A. (2023). Artistic thought in the process of globalization and logical consistency. international journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(01), 90-94.

3. Шарфиддинов О. Ижодни англаш бахти. –Тошкент, “Шарқ”, 2004. 354-355-бетлар.

4. Норматов У. Уфқларнинг чин ошиғи. –Тошкент, “Yurist-media markazi” nashriyoti, 2008. –Б.96; Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент, “Маънавият”. Рисола. 2000. –Б. 112; Х.Дониёров. С.Мирзаев. Сўз санъати (Маҳорат ва тил ҳақида). –Тошкент, 1962; Мирзаев С. XX аср ўзбек адабиёти. –Тошкент, “Шарқ”, 2006. –Б.392; Мамажонов С. Услуб жилolari. –Тошкент, Ғафур ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. –Б.220; Раҳимжонов Н. Истиқлол ва бугунги адабиёт. –Тошкент, Ўқитувчи, 2012. –Б.328; Маматов А. Фразеологик стилистика масалалари. –Тошкент, 1991. –Б. 120; Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. ДДА. – Тошкент, 2000. –Б.56; Аҳмедова Ш. Саид Аҳмад ҳажвиётида бадиий маҳорат. НДА. – Тошкент, 1994. –Б.29; Аҳмедова Ш. Юмор жилolari. – Тошкент, Фан, 1994. –Б.52; Nasirov, N. A. (2021). The history of literary translation from uzbek into english. Academic research in educational sciences, 2(6), 1011-1022; Муҳаммад аш-Шантӣ (Иордания). Ўзбек ҳикоясидан уч намуна (Ғафур Ғуломнинг “ўғригина бола”си, Абдулла Қаҳҳорнинг “бешиги”, Саид Аҳмаднинг “келинлар кўзғалони” ҳақида). Ўзбек ҳикоялари араб адабиётшунослари талқинида. Рисола. Ғоя муаллифи ва таржимон Маҳмуда Сайдумарова. – Тошкент, “Адабиёт”, 2023. – Б. 188.

5. Nasirov, A. (2023). Erkin A’zam ijodining o’ziga xosliklari haqid // Ustozlar uchun. 15(1), 78-84.

6. Nasirov, N. A. (2019). The translation problems of utkir khoshimov’s works into english. Иностранные языки в узбекистане, (3), 133-141.

7. Nasirov, A. N. (2019). Stylistic units and compositional impartiality. Theoretical & Applied Science, (12), 568-571.

8. Bozorova, G. M., Mamatov, R. R., Adaxamjonov, A. A., & Jaloldinov, M. S. (2024). THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS. Science and innovation, 3(Special Issue 19), 352-354.

8. Mukhammadaliyeva, B. G. (2023). THEORETICAL VIEWS ON PROVERB IN GERMAN AND UZBEK. International journal of advanced research in education, technology and management, 2(4).

9. Shavkatovna, T. M. (2023). BO’LAJAK PEDAGOG VA PSIXOBO’LAJAK PEDAGOG VA PSIXOLOGLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV SIFATLARNING O’RNI LOGLARDA NUTQ MADANIYATINI

RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV SIFATLARNING O‘RNI. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(3), 6-8.

10. Shavkatovna, T. M. (2021, June). THE IMAGE OF A BEAST IN THE WORK OF MY MOTHER. In Archive of Conferences (pp. 22-24).

13. Normamatovich, N. A. (2019). STYLISTIC UNITS AND COMPOSITIONAL IMPARTIALITY. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE, 12(586-571).

11. Nasirov, A. N. (2020). Artistic chronotope interpretation in Odil Yakubov's novels. *Academicia: An International multidisciplinary Research journal* ISSN222-49-7137. Impact Faktor SJIF, 7, 498-501.

12. NASIROV, N. A. (2019). THE TRANSLATION PROBLEMS OF UTKIR KHOSHIMOV'S WORKS INTO ENGLISH. *Иностранные языки в Узбекистане*,(3), 133-141.

13. Ahmadjonovna, K. M. (2024, February). XORIJIY TILNI OSON VA QIZIQARLI O‘RGANISH TO‘G‘RISIDA. In *Formation and Development of Pedagogical Creativity: International Scientific-Practical Conference (Belgium) (Vol. 4, pp. 20-23)*.

14. Xusanova, M. (2023). SOMATIK KODLAR TADQIQIGA DOIR. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), 163-163.

15. A'zamjonovna, X. S., & Azimidin, N. (2023). ISAJON SULTON HIKOYALARI BADIY KONFLIKT. *Ustozlar uchun*, 15(1), 72-77.

16. Nasirov, A. (2012). *Poetics of Odil Yakubov's novels. Monograph. Tashkent, "Fan" publishing house*, 160.